BYUDJET NAZORATINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

Nosirova Sayyoraxon Erkinbek qizi
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Qabul qilindi: 01.02.2026 **Tasdiqlandi**: 02.02.2026
Ko‘rib chiqildi: 02.02.2026

Moliyaning boshqa iqtisodiy kategoriyalardan o‘ziga xos farqli jihati shundaki, u iqtisodiy kategoriya sifatida nazorat funksiyasini bajaradi. Pul daromadlari va fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanishning instrumenti hisoblanuvchi moliya taqsimlash jarayonini ob’ektiv aks ettirib beradi. Moliyaning nazorat funksiyasi markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul fondlarini tashkil qilinishi va ulardan maqsadli foydalanish bo‘yicha YAIMni taqsimlanish jarayonida paydo bo‘ladi (Gadoyev E.F., Qurbonov X.A., Bauetdinov M.J., 2006.). Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy nazorat ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonini uzluksiz rivojlantirishni, ilmiy texnik taraqqiyotni tezlashtirishni, iqtisodiyotning barcha sohalarida sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilanishini ta’minlashga, jamiyat iqtisodiyotidagi iqtisodiy samaradorlikni rag‘batlantirish, moddiy, mehnat va moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, noishlab chiqarish xarajatlarini imkon darajasida iqtisod qilishga yo‘naltiriladi.

Davlat moliyaviy nazorati keng ma’noda – bu barcha darajadagi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari (mansabdor shaxslar) hamda davlat tashkilotlari ichki nazorat bo‘linmalarining tegishli normativ hujjatlar bilan belgilangan davlat moliyaviy oqimlarini boshqarish tartibidagi va iqtisodiy sub’ektlar moliyaviy-xo‘jalik faoliyatidagi qonunbuzarlik holatlarini aniqlash va ularning oldini olish bo‘yicha faoliyatdir. Unda birinchidan, tashkilotlar moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirishda, byudjet jarayonining borishida hamda davlat moliyaviy oqimlarini boshqarishning har qanday boshqa tartibotlarini bajarishda qonun hujjatlariga amal qilmaslik; ikkinchidan, davlat tashkilotlari va birlashmalari, davlat ishtirokidagi tashkilotlar moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining turli sohalaridagi kamchiliklar (shu nuqtai nazardan mol-mulk va majburiyatlarning o‘zgarishiga olib keluvchi moliyaviy-xo‘jalik faoliyatning samaraliligi va maqsadga muvofiqligi nazorat qilinadi); uchinchidan, xo‘jalik faoliyatida foydalaniladigan davlat pul va moddiy resurslari (kapitallari) hamda davlat mulkining voz kechiladigan nomoddiy ob’ektlarini (davlat mulkiy huquqlarini) boshqarishdagi davlatga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita moliyaviy (moddiy) zarar etkazuvchi hatolar va suiste’molliklar va davlatning moliyaviy xavfsizligiga tahdid soluvchi harakatlar davlat tomonidan nazoratga olinadi.

Bizningcha Davlat moliyaviy nazoratini quyidagicha faoliyat turlariga ajratish mumkin. YA’ni:

1. xo‘jalik faoliyatining barcha darajalarida davlat mulkining moliyaviy, moddiy va nomoddiy ob’ektlarini rejalashtirish, shakllantirish, taqsimlash (qayta taqsimlash) va ulardan foydalanish bo‘yicha faoliyat;
2. yuqorida ko‘rsatilgan ob’ektlarning butligini va ko‘payishini ta’minlash hamda buning uchun barcha sharoitlarni yaratish bo‘yicha faoliyat;
3. mulkchilikning turli shakllaridagi tashkilotlar moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini boshqarish turli kichik tizimlari (shu jumladan buxgalteriya hisobini tizimi, ichki nazorat tizimi) ning ishlashini ta’minlash bo‘yicha faoliyat;
4. davlatning moliyaviy xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha faoliyat.

Umuman olganda davlat moliyaviy nazoratining maqsadi – quyidagi xususiyatga ega bo‘lgan taqsimlash va ijro etish faoliyatida Byudjet Kodeksining 172-moddasida ko‘rsatib o‘tilgan. Davlat moliyaviy nazoratini o‘tkazishning qonuniyligi va mustaqilligi, shuningdek davlat moliyaviy nazorati natijalarining ishonchliligi prinsiplariga rioya qilinishini ta’minlashdan iborat. Shuningdek, bu erga maqsadga muvofiqlik va samaradorlik prinsiplari ham qo‘shilsa ayni muddao bo‘lar edi.

Maqsadga muvofiqlik prinsipi oldinga qo‘yilgan maqsadlarga mos kelishni anglatadi (ko‘rib turganimizdek, ushbu talqin tor ma’noga ega, bu maqsadga muvofiqlik va samaradorlik tushunchalarini aniq chegaralash imkonini beradi). Masalan, davlat mablag‘laridan (pul mablag‘lari, tovar kreditlari va h.k.) va ushbu mablag‘lar hisobidan xarid qilingan mol-mulkdan maqsadli foydalanish davlat mulkini boshqarishda maqsadga muvofiqlik prinsipiga amal qilish mezonlaridan biri hisoblanadi.

Ta’kidlash lozimki, byudjet mablag‘larini sarflash maqsadlari huquqiy hujjatlarda aniq yozilgan holatlar uchun qonuniylik va maqsadga muvofiqlik prinsiplarini chegaralash shartli xususiyatga ega, chunki mablag‘larni maqsadli sarflamaslik ham noqonuniy deb tan olinadi. Ayrim holatlarda maqsadlarga erishish mablag‘lar taqsimlovshilarining noqonuniy harakatlari bilan kuzatiladi.

Samaradorlik prinsipi, umuman olganda, nimaningdir zarurligining mantiqiyligini, amaliy va nazariy jihatdan asosliligini nazarda tutadi (masalan, u yoki bu maqsadli dasturning, u yoki bu normativ hujjatning iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa nuqtai nazarlardan haqiqiy zarurligi, uning jamiyat ushun amaliy jihatdan foydaliligi). Mazkur prinsip murakkab hisoblanadi, chunki samaradorlik ham iqtisodiy, ham ijtimoiy, ham ekologik, ham texnologik jihatlardan tushunilishi mumkin. Ayni paytda, iqtisodiy samaradorlik prinsipini ham turli nuqtai nazarlardan ko‘rib chiqish mumkin.

Masalan, iqtisodiy samaradorlik quyidagilarni nazarda tutadi:

1) xarajatlar bilan foydali samara o‘rtasidagi maqbul nisbat;
2) keraksiz xarajatlarining yo‘qligi (tejamlilik);

3) eng kam (imkon qadar kam) xarajatlar bilan muayyan maqsadga erishish (olimlar tomonidan bu ko‘pinsha “minimallik prinsipi” sifatida qayd etiladi) yoki qat’iy belgilangan resurslar hajmi yordamida eng yaxshi (eng katta) natijaga erishish (olimlar tomonidan bu ko‘pinsha “maksimallik prinsipi” sifatida qayd etiladi). Ayni paytda, masalan, byudjetga daromadlarni jalb qilish bo‘yisha ishki zahiralardan foydalanish byudjet ijrosining samaralilik mezonlaridan biri hisoblanadi. Samaradorlik prinsipiga muvofiq qarorlarning muqobil variantlari ishlab chiqilib, ulardan eng maqbullari tanlab olinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 170-moddasida davlat moliyaviy nazoratni qo‘yidagi umumiy vazifalari belgilangan ya’ni:

respublika darajasida - O‘zbekiston Respublikasi respublika byudjetining, davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining va O‘zbekiston Respublikasi respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari jamg‘armalarining shakllantirilishi hamda ijro etilishi ustidan;

mahalliy darajada - Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetidan, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlaridan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari jamg‘armalarining shakllantirilishi hamda ijro etilishi ustidan nazorat amalga oshiriladi. Davlat moliyaviy nazorati organlari davlat moliyaviy nazoratini davlat moliyaviy nazorat organlari yoki vakolatli organ tomonidan tasdiqlanadigan nazorat qilish yillik rejalariga muvofiq amalga oshiradi.

Ayrim hollarda rejadan tashqari davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirishga:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining; davlat moliyaviy nazorat organiga byudjet to‘g‘risidagi qonun hujjatlari buzilganligi faktlari to‘g‘risida ma’lumotlar kelib tushgan hollarda davlat moliyaviy nazorat organlari rahbarlarining qarorlari asosida yo‘l qo‘yiladi. Shu bilan bir qatorda Byudjet Kodeksining 174, 175, 176, 177, 178 moddalarida davlat byudjeti nazoratini amalga oshiruvshi sub’ektlarning vazifalari aniqlashtirilgan. Bizning fikrimizsha Byudjet kodeksida davlat moliyaviy nazoratni asosiy yo‘nalishlari aniq ko‘rsatilishi va shundan kelib chiqib davlat byudjeti nazoratini amalga oshiruvshi sub’ektlarning vazifalarini belgilab berish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Bizningcha, davlat moliyaviy nazoratni ta’minlash ushun qo‘yidagi vazifalar amalga oshirilishi lozim: har qanday tashkiliy-huquqiy shakllardagi, mulk shakllardagi, faoliyat (soha) turlaridagi tashkilotlarni, tashkilotlar, tadbirkorlar birlashmalarini ular tomonidan o‘zlarining moliyaviy-xo‘jalik (tadbirkorlik) faoliyati jarayonida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soluvshi yuridik normalarni o‘zida mujassam etgan normativ- huquqiy hujjatlarga amal qilinishi nuqtai nazaridan nazorat qilish va ushbu munosabatlarni

boshqarish; davlat tashkilotlarini ular tomonidan o‘zlarining moliyaviy-xo‘jalik faoliyatiga taalluqli yakka tartibdagi huquqiy hujjatlarga amal qilinishi nuqtai nazaridan nazorat qilish.